

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim Vazirligi

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Sharq filologiyasi va falsafa fakulteti

Tarjima nazariyasi va amalyoti yo`nalishi

REFERAT

Mavzu: Chingiz Aytmatov asarlari va uning “Asrga tatigulik kun” asari haqida

Annotasiya

Mazkur referat Chingiz Aytmatov va uning “Asrga tatigulik kun” asari, asarning o`zbek tilidagi tarjimasi haqida bo`lib, ushbu ishda asarning bosh g`oyasi ochib berilgan hamda asardagi voqealar bayoni to`g`risida fikr yuritilgan.

Bajardi: Jo`rayeva G.

Tekshirdi: Xodjayeva N.B.

Toshkent-2013

Reja:

1. Chingiz Aytmatov va uning “Asrga tatigulik kun” asari va asarning o`zbek tilidagi tarjimasi haqida
2. Asar bosh g`oyasi va asar voqealar bayoni haqida
3. Xulosa: “Insoniylik insonlikdan ustun”

Chingiz Aytmatov ijodiy faoliyatining boshlanishi uning talabalik davriga to'g'ri keldi. 1952-yili "Sovet Qirg'izistoni" gazetasida "Qirg'iz tilining terminologiyasi haqida", 1953-yil esa "Sovet Qirg'izistoni" gazetasida "Originaldan uzoq bo'lgan tarjimalar" nomli maqolalari e'lon qilindi. "Gazetachi Deyudo", "Hoshim" (1952), "Sepoyachi", "Oq yomg'ir" (1954), "Raqiblar" (1955), "Baydamtol sohillarida" (1955) kabi hikoyalari bosilgan. 1958-yili yozilgan "Jamila" qissasi yozuvchiga shuhrat keltirdi. Ushbu asar uning nomini jahonga tanitdi. Asar jahonning 40dan ortiq tillariga tarjima qilingan. "Jamila" qissasi Lui Aragon "Muhabbat haqida yozilgan eng guzal qissa" deb atagan. Chingiz Aytmatov 1991-yil Qirg'izistonning Luksemburg, Belgiyadagi elchisi, 1995-yildan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati assambleyasi Prezidenti bo'lgan. U O'zbekistonning "Do'stlik" (1995), "Buyuk xizmatlari uchun" (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qirg'iziston Respublikasida Chingiz Aytmatov nomidagi Xalqaro "Oltin metal" mukofoti ta'sis etilgan. (1999). Yozuvchi "Momo yer", "Qizil durrachali sarviqomatim" kabi asarlarini avval qirg'iz tilida yozib, so'ng o'zi rus tiliga tarjima qilgan. Ba'zi asarlari esa, avval rus tilida yozib masalan "Oqkema", "Alvido, Gulsari" kabilar qirg'iz tiliga o'girilgan. Uning "Tog' va cho'l qissalari" turkumiga kirgan asarlari ham yuksak baholangan adibning asarlari jahonning 160ga yaqin tillariga tarjima qilingan. Chingiz Aytmatovning deyarli barcha asarlari o'zbek tiliga chop etilgan. Adib O'zbekistonning jahon madaniyatida tutgan mavqeiga yuksak baho berib: "Qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin," deb yozgan edi.

Adibning ko'pgina asarlarining o'zbek tiliga tarjimasi 1978-yilda Asil Rashidov tarjimasi asosida Toshkentda G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti tomonidan ikki tomlik tanlangan asarlari H. Hayitmetov kuzatuv asosida bosilib chiqdi. Ushbu tanlangan asarlardan joy olgan "Oq kema" qissasini adib 1970-yilda yozgan bo'lib, ushbu qissa 1971-yilda "Qirg'iziston" nashriyotida chop etilgan. Ushbu nashr rus va o'zbek tillariga qilingan tarjimalar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Ushbu qissa dastlab "Adabiyot va san'at nashriyoti"da 1973-yilda Asil Rashidov tarjimasi asosida chop etilgan. Chingiz Aytmatovning ilk romani "Asrga tatigulik kun" bo'lib, u to'rt oy ichida ya'ni 1979-yil dekabrda boshlab, 1980-yilning martida yozib tamomlagan.

Chingiz Aytmatovning eng yaxshi asarlari allaqachon yangi jahon adabiyoti klassikasining tarkibiy qismi bo'lib qoldi. Uning kitoblari uslubi jihatidan ham, ko'tarilgan falsafiy masalalarga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi, shu bilan birga ularning umumiy jihatlari ham bor. Shu bois muallifning har asarini oradan vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'qigini keladi va har gal yangi va yangi jihatlarni kashf etasan kishi. Aytmatov asarlarining kitobxonga ayrica hayajon soladigan ta'sir kuchi jamiyatda pishib yetilgan muammolar o'rtiga tashlanishidir.*

Chingiz Aytmatovning "Asrga ta'tigulik kun" romani 1980-yilda yozilgan. Asar chop etilishi bilan o'quvchilar tafakkuri va ruhiyatini larzaga keltirdi. Chunki unda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlar; o'zlikni anglash, o'zgani tushinish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ekanligi ko'rsatiladi. Asarda bu masalalar konkret odamlar taqdiri misolida badiiy ifoda etilgan edi.

* Ch.Aytmatov. "Ohir zamon ishonarlari" "Sharq" nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2001. 3-bet.

Holbuki, bunday xususiyat sho`ro adabiyoti uchun tamomila begona hisoblanardi.

Chingiz Aytmatov ulkan san`atkorgina emas, balki jasur inson ham bo`lgani uchun ana shunday vaqtda odamiylik odamlikdan baland ekanligini, kechagi kunini eslamaydigan, bobolarning udumlari bilan faxrlanmaydigan, ularga amal qilmaydigan kimsalar na oti va na zotini biladigan manqurtdan farq qilmasligini Sobitjon va Jo`lamon timsollari misolida juda ta`sirli aks ettirdi.

Ko`nglining eng tubidagi yuksak ezgu tuyg`ular ifoda etilgan bu romanga X asrda yashab o`tgan arman yozuvchisi Grigor Narikatisining “Musibatnoma” kitobidan “Bu kitob jism-u fig`onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening” satrlarining epigraf qilib olinishida ham teran ma`no bor. Chingiz Aytmatov uchun ham bu roman “jon-u jahonning o`zi edi.”[†] Asar chindan-da jahonga mashhur yozuchining dilidagi oh-u fig`oni, jonini o`rtagan dardlari, alamlari bayonidir. Kitobda odm degan mavjudotning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tilidan, g`ururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahsgatli jinoyat ekan yovqur Nayman onaning tengsiz tengsiz fojiasi asosida aks ettirilgan.

Chingiz Aytmatovning buyuk yozuvchiligi shundaki, siyosatdan tamomila chetda turuvchi, siyosiy muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr kechiruvchi kamtargina odam ham aslida siyosatning ta`siridan holi bo`lolmasligini Bo`ronli Edigey misolida juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunini unitmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o`zida kuch topa oladigan chin insondir. Uning ezgu insoniy sifatlari qiyinchiliklarga qaramay marhum

[†] Adabiyot.Umum o`rta ta`lim maktablarining 9-sinf uchun darslik-majmua. “Yangiyo`l Poligraph service” Toshkent -2006. 382-bet.

Kazangapning vasiyatini bajarishga o`zida kuch topganida, qanchalik g`azablanmasin, o`lik bor joyda janjallashmalikga qudrati yetganida, Sobitjonning gap-so`zlariga munosabatida yaqqol ko`rinadi.

Ezgu insoniy tuyg`ulardan mahrum, odamning ko`nglini his etmaydigan, bobolar qo`llagan udumlarni mensimaydigan, kechagi kunidan uzilgan, ammo o`zini ilg`or fikrli ziyoli hisoblaydigan Sobitjon Manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi ham juda ta`sirli ko`rsatilgan.

Kazangapni dafn etish jarayonida, marhum bilan vidolashuv onlarida, Allohga munojot qilgan o`rinlarda tasvirida Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar namoyon bo`lgan. Xullas, bu roman odamning odamligini ta`minlab turadigan asosiy qadryatlar haqida dard bilan bitilgan o`lmas asardir.

O`tmishda milliy va ma`naviy ezilgan xalqlar Oktyabr revolyutsiyasi tufayli mangu ozodlikka chiqdi. Barcha sohalarda bo`lgani kabi mamlakatimiz xalqlarining shaklan milliy, mazmunan sotsialistik adabiyoti va san`ati ham ravnaq topdi. O`tmishda o`z yozuvi va yozma adabiyotiga ega bo`lmagan kichik xalqlar ham mustaqil katta adabiyot yaratib, jahonning ilg`or xalqlari adabiyoti bilan bellasha oladigan yuksaklikga ko`tarildi.

“Asrga tatigulik kun.Bo`ronli bekat” dastlab o`zbek tiliga “Asrni qaritgan kun.Bo`ronli bekat” nomi bilan “Yoshlik jurnalining 1986-yil 1-4,”Kunda” nomi ostida “Sharq yulduzi”jurnalining 1987-yil 8-10-sonlarida Asil Rashidov hamda Ibrohim G`afurov tarjimalarida bosib chiqilgan edi.

Asarning o`zbek tilidagi tarjimasi asosida o`zbek kitobxoni bevosita o`ziga qardosh bo`lgan xalqning buyuk farzandining buyuk asari bilan tanishish, uning ko`nglidagi og`riqlarni bilish imkoniga ega bo`ldi. Asarning asl nusxasiga nazar tashlaydigan bo`lsak o`quvchi bundan tarjimadan topganchilik ma`naviy ozuqa topolmasligi mumkin. Ammo asar tarjimasi o`zbek kitobxonini bir muncha vijdon azobida qiynashi, o`ylantirishi turgan gap. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak asarning asl nusxasini tan deb oladigan bo`lsak uning tarjimasi unga chinakam ruh bag`ishlagan. Asar yuksak did, e`tibor va chinakam mahorat bilan yozilgan.

Chingiz Aytmatov o`z asarlarida oddiy mehnat kishilari ishchilar, chorvadorlar dengizchilar, ziyolilarning obrazlarini chizadi. Lekin jamiyat faqt shulardangina iborat emas. Atrofimizda oddiy temiryo`lchi bilan birga tekinxo`rlar, o`z mehnati bilan kun kechiradigan dehqon, yuk tashuvchi, kosib, paxtakor, oshpaz, nonvoy bilan yonma-yon kasb-korining tayini bo`lmagan fosiq, aroqxo`r, firibgar muttaham, tovlamachilar ham “yetarlicha” topiladi. Bulardan ko`z yumib o`tib bo`lmaydi. Ularning o`z amollari, o`z nuqtai nazarlari va o`z manfaatlari bor. Yozuvchi insonlarni mehnatkash yoki nomehnatkash tanballarga ajratmaydi. U odamlarning qanday din, qanday mazhab, qanday siyosiy-partiya vakili bo`lganidan qat`iy nazar, shavqatli va shavqatsiz, insofli va insofsiz, dono va nodon odamlarni o`z asarlarida yorqin ko`rsatadi. Boshqacha aytganda, odamga u shunchaki odam bo`lganligiga emas, balki insoniy mohiyatiga, qanday odamligiga qarab hukm chiqaradi. Yozuvchining asarlarining o`ziga xos yana bir tarafi ularda ko`ngilga uradigan qayerdagi bema`no oldi-qochdilik uchramasligidadir.

“Asrga tatigulik kun” romanida voqealar asosan Sario`zak cho`lida, Bo`ronli temir yo`l bekatida bo`lib o`tadi. Gap butun ongli hayotini bekatda oddiy temiryo`lchi bo`lib o`tkazgan Kazangapning vafotidan so`ng tafn etish taraddutlari tasviri bilan boshlanib, romanning nihoyasida dafn musibat ustiga musibat bilan tugaydi. Shu orada Kazangap biln Edigey Bo`ronning hayoti, ularga chambarchas bo`g`liq yoki bo`g`liq bo`lmagan holda Tinch okeani tepasida Sovet-Amerika “Paritet” kosmik kemasining parvoza bilan bog`liq hodisalar, Ona Bayit qabristoni, Nayman ona va uning baxtsiz farzandi Jo`loman, maktab muallimi Abutolib Quttiboyev, uning sadoqatli rafiqasi Zarifa va farzandlarining boshiga tushgan falokatlar hikoya qilinadi.

Chingiz Aytmatov barcha asarlarida o`z usul, uslub va tadbirlariga sodiq qoladi: ularda real hayotiy voqealar tasviri bilan turli-tuman rivoyat va afsonalar bir-biriga qo`shilib-chatishib ketadi. Tulki, bo`ri, it, tuya, ot, kalhat, baliq singari xonaki va yertqich hayvonlar, jonivorlar ham o`ziga xos “adabiy personajlar” bo`lib gavdalanadi. Ch. Aytmatov romanlarida, mavzu va uslub rang-barangligi ichra real hayot, jo`n qirg`iz turmush taxliti tasviri qayerdan boshlanadi-yu hayratomus afsona, rivoyat va fantastika qayerda tugashini aniqlash qiyin. Aytaylik, Kazangapni Bo`ronli bekatidan o`ttiz chaqirimcha narida joylashhgan Ona Bayit qabristonida dafn etishiga undagan real sababiyatlar va marosim bilan mazkur qabristonga asos solgan Nayman ona bilan qirg`iz elining raqiblari junjanglar tomonidan manqurtga aylantirilgan farzandi o`rtasida fojiona tugagan qonli voqea ya`ni onaning o`z o`g`li qo`lida shavqatsizlarcha o`ldirilishi haqidagi rivoyat bugungi qozoq hayotida kechayotgsn boshqa bir real voqea bilan chambarchas bog`lanadi: kosmadrom hududida joylashgan Ona Bayit qabristonidan

Kazangapga go`r qazish ikki metr joy topilmaydi. Boshqacha aytganda, dunyoning bir nechta davlatini o`z bag`riga sig`dira olgan hayhotdek Qozog`iston cho`lida , yerlik qozoqlarning azaliy qabristonida o`z umrini Vatan va xalq xizmati, baxt-saodati yo`liga tikkan halol mehnatkash kishining jasadiga “o`n bir qarich “ joy berilmaydi.

Bo`ronli bekatida bor-yo`g`i 6 xonadon yashaydi. Atigi 6 xonadon, asarga asos qilib olingan Kazangap bilan Bukey, er-xotin Edigey va Ukkubala oilalari butun boshlik romanga material qilib berilishi mumkinmi? Agar har olti ovuldoshdan bir roman yozilaversa... xa, bir odam to`g`risida ham roman yozsa bo`ladi. Buyog`i yozuvchining mahorati, badiiy tafakkur quvvatiga bog`liq. Ch.Aytmatovning kuchi va ustaligi shundaki, u mana shu ikki xonadon, xususan Kazangap bilan Edigeyni, ular yashayotgan va kurashayotgan Bo`ronli bekatini bugun qozoq elining, qolaversa mamlakat va dunyo voqealarining qoq markaziga aylantiradi. Ikki qahramonning hayot yo`lini- front, Qozog`iston, O`zbekiston,Orol qadar, buyog`i-hatto kosmos bilan bevosita yo bilvosita bog`lab, ulab yuboradi. Tangrining o`zi ham allaqachonlar unutib yuborgan bu nazarnogir Bo`ronli bekati dashtining o`rtasida joylashgan, butun insoniyatning taqdiri va, tabir joiz bo`lsa, jamiki zaminliklarning sifati bilan, g`ayri zaminiy odamlardagi ongli mavjudotlar bilan bog`langan kosmadrom, mag`ribdan-mashriqqa, mashriqdan-mag`ribga zuv qatnayotgan poyezdlar, temir yo`l bilan tutashgan.

Ch.Aytmatov inson zoti sharifini, nainki inson, umuman tirik mavjudotni juda xilma-xil sharoitlarda, turli vaziyatlarda, ziddiyatli, tang holatlarda, mas`ud damlarda, fojia ichida olib qaraydi. Insonning tavallud

topishi , unib-o`sishti , kamoloti, parvozi, inqirozi, yuztuban ketish onlarida, chuqur ruhiy iztiroblar ichida ko`rar ekan, shunisi tahsinga sazovorki, har qanday sharoitda-hatto yorug` dunyodan abadiy ko`z yumganida ham – inson ulug` va mukarram bo`lib qolishga arziydigan zot, deb talqin qiladi yozuvchi. Otasi Kazangapni Sobitjon tirigida- shod, o`lganda ham obod qilmagan ekan, bundan qattiq ranjigan Edigey tong qoladi: “Odamlarga nima bo`lgan o`zi!-deya g`zablandi Edigey.-Ularga o`limdan boshqa hamma narsa muhim!-Bu fikr Edigeyning ich-etini tirnardi.-Modomiki ularga o`lim ahamyatsiz ekan, demak ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetmaydi. Unday bo`lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashaydilar?”

Romanda har xil tiplar turli-tumanlar tiplar, turli tuman harakterlar yaratilagan. Kazangap-oqil, Edigey- sobit, Nayman ona- buyuk jabrdida, Oyzoda- mushtipar, Sobitjon-vaysaqi, letenant Tansiqboyev-g`irt to`pori va hakozo. Har bir personajning o`z xulq-atvori, o`z e`tiqodi va falsafasi, o`z manfaaati va ichki dunyosi, tabiiy ishonarli bir tarzda ochib berilgan. Kazangap Asanboyev bilan Edigey Bo`ron hayoti, “Paretit” kosmik kemasi orqali g`ayri zaminiy sayyoralar bilan transatlantik aloqa, Abutolib Qutiboyevning shaxsga sig`inish davri qurboni bo`lganligi, Qoranorning “ishqiy” sarguzashtlari va hakovolar... Bularning har biri o`zgacha tugall, o`zicha mukammal va guzal bir qissa. Ular orasida ayniqsa Nayman ona bilan uning manqurt qilingan o`g`li haqidagi rivoyat nihoyatda ta`sirchan, davr fojialarini o`zida aniq-tiniq ifodalashi bilanjozibali va unutilmas.Bu voqealar romaning 6-7 boblarida hikoya qilinadi. Asar o`quvchiisi bitmas-tuganmas, ummoniy onalik shavqati bilan uning qotili, faqati mushfiq va mehribon Nayman onaga emas, uning timsolida butun yorug` jahondagi

onaizorlarga qarshi qoʻl koʻtargan “manqurtnoma” “jungjangnoma” haqidagi mislsiz bu qaynoq satrlarni bus-butun yod olgan boʻlsa ajab emas. Dunyodagi har qanday mashum halokat ham faqat halokat boʻlgani uchun emas, balki oʻz tarixi va istiqbolga, davomiga ega boʻlganligi, bot-bot takrorlanib turishi mumkinligi bilan ming chandon hatarliroq. Qaniydi, bu qachonlardir, uzoq oʻtmishda, faqat Sarioʻzak dashtlarida, faqat qirgʻizning elida, faqat Nayman ona, Doʻnanboy, Joʻlamonlarning boshida kechgan voqealar haqidagi antiqa bir rivoyat boʻlganda![‡] Hobuki, uzoqqa borib oʻtirmay, bizning eng munosib zamondoshimiz, imoni butun, aqli-esi butun, oʻzi butun inson, yigirmanchi asr fuqarosi, odamohun kzungapning pushti-kamaridan boʻlgan oʻgʻlon Sobitjonni el-yur bir ogʻizdan “manqurt” “yangi zamon manqurti” deb atagan ekan, bu ayni haqiqat, ota-ona, qarindosh-urugʻlarning yuziga oyoq bosgan murtad bir shaxsga berilgan juda munosib “yorliq”bu. [§]

Shu oʻrinda “maqurt” va “manqurtlik” tushunchalariga toʻxtalib oʻtsak. Asarda tilga olinadigan muhim, qozoqlarning ajdotlarining hoki-poyi yotgan qadamjo boʻlmish Ona Bayit qabristoninning oʻz tarixi bor. Rivoyatlarga koʻra, oʻtgan zamonlarda Sarioʻzakni bosib olgan jungjanglar asirga tushgan askarlarga juda yomon va shavqatsiz tarzda muommila qilar ekanlar. Ular vaqti kelganda bunday tutqunlarni qoʻshni mamlakatlarga qul qilib sotib yuborishardi. Bu tutqunning omadi kelgan hisoblanarkan. Chunki bu tutqunning ertami-kechmi, ozodlikga chiqishga imkoni boʻlarkan. Jungjanglarning qoʻlida asir boʻlib qolganlarning shoʻri

[‡] “Asrga tatigulik kun. Boʻronli bekat” Chingiz Aytmatov. “Toshkent Gʻofur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti” Toshkent 1989-y. 550-bet

[§] “Asrga tatigulik kun” Chingiz Aytmatov. “Gʻofur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti” Toshkent 1989-y. 550-bet

qurirkan. Ular mahbuzning boshiga teriqalpoq tortish bilan shavqatsiz tarzda qiynab, uni hotirasidan ayirishar ekan. Odatda urushda asirga tushgan yosh yigitlarga bunday jazo qo'llanar ekan. Avvaliga jungjanglar tutqunning sochini yaxshilab olishar ekan. Keyin esa, jungjanglarning chapdast qassoblari katta tuyani olib kelib so'yishar ekan va uning terisini shilishar ekan. Ular tuya terisini bo'laklarga ajratib olishib, uning orasidagi eng qalin terini ya'ni bo'yin terisini ajratib olishar ekan. Keyin esa bo'yin terisini bo'laklarga bo'lishib, hovuri chiqib turgan terini shu zahotiyiq hozirda suzuvchilar kiyadigan qalpoqcha singari, tutqunning yangitdan qirilgan boshiga kiyg'izib qo'yishardi. Mana shu teri qoplash deyiladi. **

Bunday qiynoqqa duchor etilgan qul daxshatli qiynoqlarga bardosh qilolmay o'lib keta, yoki bo'lmasa, hotirasidan umrbod mahrum etilib, o'tmishini, hatto kimligini eslayolmaydigan qulga-ya'ni manqurtga aylanib olar ekan. Bitta tuyaning bo'yin terisi 5-6ta qalpoqchaga yetar ekan. Qalpoq qoplangan har bir qul qiynalganda boshini yerga tekkazaolmasin uchun, bo'yniga yog'och bo'yinto'riq bog'lashardi. Shu alfozda ularning o'tinchli va quloqni qomatga keltiruvchi ovozlari eshitilib qolmasin uchun, ularni jazirama cho'llarga oyoq-qo'llari bog'liq holda eltib tashashar edi. Bu qiynoqlar ko'p davom etmasdi, ammo bu qiynoqlarga dosh berib, tirik qoladiganlar kam topilardi. Asirlarni qo'riqlash uchun joylarda qalin qilib qo'riqchilar qo'yilar ekan. Bunday qullarning oilalari ularni qaytarib olishga yoki pul evaziga urinishmas ekan. Chunki ularning faqat jonsiz tanigina qaytar ekan. Ya'ni ularning hotiradan ajralgan tanigina qaytar ekan. Faqat birgina nayman validasi- rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ayolgina o'z o'lining bu tahlit achchiq qismati bilan

** "Asrga tatigulik kun" Chingiz Aytmatov. "G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti" Toshkent 1989-y.
107-bet

murosa qila olmadi. Sario`zak afsonasi shu haqda. Ona Bayit^{††}-Onaizor makoni qabristonning nomi ham shundan kelib chiqqan.

Dalaga tashlangan bunday qullardan ayrimlarigina bunday qiynoqqa dosh berib tirik qola olar edi va manqurtga aylanardi. Manqurt o`zining kim ekanini, qaysi urug`dan ekanini, kimning farzandi ekanini hatto nasl-nasabini eslayolmasdi. Barcha quldorlarni havotirga soladigan narsa bu-qullar isyonidir. Lekin manqurtda qochish, ketish, isyon haqida fikrlash ham bo`lmasdi. U faqat sodiq itdek, hizmat qilardi va faqat o`z egasini tanirdi. Uning boshqalar bilan ishi bo`lmasdi. Uning fikri-zikri qornini to`ydirish bilan o`tardi.

Insonning insoniy fazilatlaridan judo etilishidan, o`z eli, o`z xalqi, o`z Vatani, o`z ona-otasi, o`z ajdotlarini tanimaydigan qilinganidan ko`ra boshidan judo etilgani, eng o`g`ir qiynoqli o`limga duchor etilgani ma`qul. Insonning eng oliy boyligi-hotirasiga chang solingandan ko`ra, qulning ko`ksini poralab ziyon yezkazmoq ma`qul emasmikan? Tarix ko`p jahongirlarni ko`rdi. Ammo tarixda jungjanglar kabi o`z tarixida hotira yulib olib shuxrat qozongan millat bo`lgan emas. Asarda faqatgina jungjanglar tomonidan hotirasidan ajratilgan shaxslar haqida so`z bormaydi. Asarda o`zini “yuksak darajada manaviyatli” deb fikrlaydigan” Sobitjon va o`z qaynotasining dafn marosimiga ham boraolmaydigan o`ta vaqti ziq xotini haqida ham oz boradi. Biz Sobitjonni haqiqiy asl manqurt deb sanasak bo`ladi. Asar voqealari bu haqda yaqqol so`zlaydi. Sobitjon o`z otasining so`nggi vasiyatini ham bajarishga o`zida kuch topaolmaydi. U o`zligini unutayozgan, xatto o`z oylasiga bosh bo`laolmaydigan, o`z

^{††} Ona Bayit nomidagi ikkinchi so`z “bayt” ma`nosini anglatadi, ya`ni farzand dog`ida iztirob chekayotgan onaning alamli faryodi, munajaatini anglatadi.

xotiniga soʻzi oʻtmaydigan, ajdotlari urf-odatlariga bepisantlik bilan qaraydigan shaxs sifatida gavdalanadi. Sobitjon oʻz oʻtmishini unutgan, oʻtmishni unutish katta xato. Oʻtmishni unitish bu oʻzlikni unitishdir. Asardagi qahramonlardan biri-Sobitjonning xotiniga toʻxtaladigan boʻlsak, u oʻz qaynotasining dafn marosimiga ham boraolmaydi. Qozoq xalqi biz oʻzbeklarga qardosh xalq sanaladi. Oʻylashimcha ularda ham biznikiga oʻxshagan qaynota-qaynonaga nisbatan kelinlik burchi degan tushuncha boʻlsa kerak. Ammo u qanday kasbiy vaziyatni sabab qilib koʻrsatib, oʻz burchini bajarmaydi, qaynotasining dafn marosimiga bormaydi. Oʻz farzandlarining ham darslari qolib ketishini roʻkach qilib dafn marosimiga yubormaydi? Bular qanday insoniylikga kiradi. Bular manqurtlikning alomatlari emasmikan? oʻzlikni unutish katta xato. Bunday ogʻir xatoga yoʻl qoʻygandan koʻra inson bundan koʻra oʻlgani maʼqul. Bu bizning asar oʻquvchisi sifatida qilgan xulosamiz, shunchaki bu bizning oʻz fikrimiz. Agar xatoliklar boʻlsa uzr soʻraymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Islom Karimov “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch”
Toshkent-
2. “Asrga tatigulik kun.Bo`ronli bekat” Chingiz Aytmatov.
“G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti”
Toshkent 1989-y.
3. Adabiyot.Umum o`rta ta`lim maktablarining 9-sinf uchun
darslik-majmua. “Yangiyo`l Poligraph service” Toshkent -
2006y.
4. Chingiz Aytmatov.”Ohir zamon ishonalari” “Sharq”
nashriyot- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh
tahririyati.Toshkent-2001y
5. “Tanlangan asarlar” 1-tom. Chingiz Aytmatov. “G`ofur
G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti” Toshkent-
1978y
6. “Tanlangan asarlar” 2-tom. Chingiz Aytmatov. “G`ofur
G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti” Toshkent-
1978y